

PROFAYLINGDAN FOYDALANISHDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Bahriddin G'iyosov

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida profayling usulidan foydalanishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda uning shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, profaylingni qo'llash jarayonida insonning shaxsiy hayoti, shaxsiy ma'lumotlari va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Profayling, shaxsiy hayot daxlsizligi, konstitutsiyaviy kafolatlar, inson huquqlari, jamoat xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, konstitutsiyaviy tamoyil, huquqiy mexanizm.

Zamonaviy jamiyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Global miqyosda terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatlar hamda ekstremizm kabi xavf-xatarlarning kuchayib borayotgani huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yangi va samarali usullardan foydalanishni talab etmoqda. Shunday usullardan biri profayling bo'lib, u shaxslarning xulq-atvori, psixologik holati yoki boshqa belgilarini tahlil qilish orqali ehtimoliy xavfni aniqlashga qaratilgan usuldir.

Profayling bugungi kunda ko'plab davlatlarning huquqni muhofaza qilish amaliyotida qo'llanilmoqda. Biroq ushbu usulning qo'llanishi inson huquqlari, xususan shaxsiy hayot daxlsizligi, tenglik va kamsitilmaslik prinsiplariga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, profaylingni qo'llash masalasi xalqaro huquq, konstitutsiyaviy huquq hamda inson huquqlari tizimida dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda profaylingdan foydalanish masalasi nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi, balki inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlanishi, sun'iy intellekt tizimlarining keng qo'llanilishi shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda.

Bu yo'nalishda ilmiy mulohazalar yuritir ekanmiz, profaylingdan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlari, qonuniylik, mutanosiblik va kamsitilmaslik tamoyillari asosida baholanishini hisobga olish lozim.

Umuman olganda, konstitutsiyaviy kafolatlar fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqalari har bir demokratik davlat o'z zimmasiga olgan ixtiyoriy majburiyat sifatida ko'riladi. Bu kafolatlar, avvalo shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq bo'lib, Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi belgilangan.[1] Shu kabi boshqa xalqaro xujjatning 9-moddasida mazkur masalaga konseptual jihatdan yondashilgan bo'lib, unga ko'ra har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonunda belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas.[2]

Jumladan, Bosh qomusimizda ham bu borada norma keltirilgan bo'lib, 20-moddada O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liq ekanligi, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi lozimligi ko'rsatilgan.[3] Bundan tashqari, Yevropa Kengashi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 19-bo'limida mazkur masalaga atroflicha yondashilgan. Ya'ni, imtiyozlar va immunitetlar mansabdor shaxslarga faqat shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki Kengash manfaatlari uchun beriladi. Bosh kotib har qanday holatda ham mansabdor shaxsning daxlsizligini bekor qilish huquqiga va burchiga ega, agar uning fikricha, daxlsizlik adolatni amalga oshirishga to'sqinlik qilsa va uni Kengash manfaatlariga zarar yetkazmasdan olib tashlash mumkin bo'lsa, Bosh kotibga nisbatan Kengash daxlsizlikni bekor qilish huquqiga ega.[4]

Yana aytish mumkinki, profayling shaxslarning xatti-harakati, psixologik xususiyatlari hamda boshqa ijtimoiy belgilarini tahlil qilish orqali ehtimoliy xavf darajasini aniqlashga qaratilgan tahliliy usul hisoblanadi. Ushbu usul jinoyatchilikning oldini olish, terrorizmga qarshi kurashish hamda jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlashda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Biroq profaylingni qo'llash jarayoni ko'pincha shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgani sababli shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shaxsiy hayot daxlsizligi insonning fundamental konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquq insonning shaxsiy hayoti, oilaviy siri, yozishmalari, telefon muloqotlari hamda shaxsga doir boshqa ma'lumotlarning noqonuniy aralashuvlardan himoya qilinishini anglatadi. Xalqaro huquqda ham shaxsiy hayot daxlsizligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 11-moddasida hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi

sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emasligi, har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga egadigi, bundan tashqari, jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqli ekanligi bayon etilgan.[5]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Konstitutsiyaga muvofiq, har bir inson shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga ega bo'lib, shaxsiy va oilaviy sir himoya qilinadi. Bundan tashqari, shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Mazkur normalar profayling kabi usullarni qo'llash jarayonida ham inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Profaylingdan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash uchun bir qator muhim huquqiy tamoyillarga rioya etilishi zarur. Avvalo, profayling faoliyati qonuniylik tamoyiliga asoslanishi kerak. Ya'ni, ushbu usul faqat qonun bilan belgilangan asoslar va tartibda qo'llanilishi lozim. Ikkinchidan, mutanosiblik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu amaliyot orqali xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qo'llanilayotgan choralar inson huquqlarini ortiqcha cheklamasligi zarur. Uchinchidan, kamsitilmaslik tamoyiliga qat'iy amal qilinishi talab etiladi. Profayling jarayoni shaxslarni ularning irqi, millati, dini yoki boshqa belgilariga ko'ra ajratish yoki diskriminatsiya qilish vositasiga aylanib ketmasligi kerak.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi profayling usullarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari, katta ma'lumotlar (big data) tahlili va algoritmik prognozlash usullari xavfli xatti-harakatlarni aniqlashda qo'llanilmoqda. Biroq, bunday texnologiyalardan foydalanish shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq yangi huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli profayling jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning samarali huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, profaylingni qo'llash jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash jamoat xavfsizligini mustahkamlash bilan bir qatorda inson huquqlarini himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi. Profaylingdan foydalanish jarayoni qat'iy huquqiy tartibga solingan, shaffof va nazorat ostida bo'lgan taqdirdagina u demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ravishda samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Qonuniylik, mutanosiblik va kamsitilmaslik tamoyillari inson huquqlarini himoya qilishning fundamental prinsiplari hisoblanadi. Ushbu tamoyillar xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda milliy qonunchilikda, xususan Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Mazkur tamoyillar profayling kabi xavfsizlik

choralarini qo'llash jarayonida ham inson huquqlari buzilishining oldini olishda muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Nafaqat O'zbekiston Respublikasi, balki boshqa barcha demokratik davlatlar biz yuqorda keltirib o'tgan xalqaro xujjatlarda keltirilgan normalarni ixtiyoriy majburiyat sifatida qabul qilganlar. Misol uchun, davlatda favqulodda holat yuz bergan vaqtda, millat hayoti tahdid ostida qolgan va bu holat haqida rasmiy ravishda 1966-yilda e'lon kilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Pakt bo'yicha olgan o'z majburiyatlaridan chekinish uchun choralar ko'rishi mumkin, lekin bu chekinishni ahvol keskinligi talab etgan bo'lishi hamda bu choralar xalqaro huquq bo'yicha boshqa majburiyatlarga xilof bo'lmasligi va irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab kamsitishga olib kelmasligi kerak.

Bu boradagi ayrim olimlarning fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, profayling – amaliy xavfga yo'naltirilgan xulq-atvor tahlilining integratsiyalashgan usuli sifatida baholanishini aytadi.[6] Aslida, Profaylingni amalga oshirishning asosiy maqsadi muayyan amaliy muammolarni hal qilish uchun inson xatti-harakatlarini tahlil qilish va bashorat qilishdir: masalan, jinoyatchini qidirish va so'roq qilish, muzokaralarga tayyorgarlik ko'rish, olomon ichidagi potensial hujumchilarni aniqlash, investitsiya loyihasi guruhlarini baholash, korporativ tekshiruvlar o'tkazish, yollash paytida xulq-atvor xavflarini aniqlash faoliyati deyish mumkin.

Kriminologik portretni yaratishda xorijiy olimlarning qarashlarini ham e'tiborga olish lozim. Ch.Lombrozo kriminologiyada antropologik yondashuvning asoschisi va ko'plab asarlar muallifi bo'lib, ular orasida “L'uomo delinquente”[7] alohida o'rin tutadi. U jismoniy ko'rinish ma'lum turdagi jinoyatlarni sodir etishga moyillik belgilarini ko'rsatishi mumkinligiga ishongan. Shuning uchun, bu tashqi xususiyatlarni tahlil qilish jinoyatchilarni aniqlash imkonini beradi. Keyinchalik tadqiqotchilar Lombrozo nazariyasini rad etishdi. Biroq, uning kriminologiya va jinoiy psixiatriya rivojiga qo'shgan hissasi shubhasizdir.

H.Gross esa, sud-tibbiy ekspertizasining ushbu masalaga qay tariqa e'tibor qaratganligini baholaydi. Gross politsiya dalillarini to'plash amaliyotini umumlashtirdi, professional jinoyatchilarning kundalik hayoti va jargonini tasvirlab berdi va eng so'nggi ilmiy kashfiyotlarni tergov ishlariga qo'llashni tasvirladi. Shuningdek, u ko'plab jinoiy ishlarni tasvirlab bergan va jinoyatchilarning profillarini tuzgan. U shuningdek, birinchi sud-tibbiy jurnali “Archives for criminalanthropology and criminalistik”ga asos solgan.[8] Uning ilmiy izlanishlariga ko'ra, u tahlil qilgan jinoyatchilarning shaxsi haqidagi xulosalar keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan qayta ko'rib chiqilgan. Shunga qaramay, uning hisoboti haqli ravishda amaliy sud-tibbiy proffilashtirishning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi.

O'ylashimizcha, kriminal profayling va jinoyatchining kriminologik portretini shakllantirish masalasi turli davrlarda turli nazariy yondashuvlar asosida rivojlangan. Xususan, Ch.Lombrozo tomonidan ilgari surilgan antropologik yondashuv jinoyatchining jismoniy xususiyatlari orqali uning jinoyat sodir etishga moyilligini aniqlash mumkinligi haqidagi g'oyaga asoslangan bo'lsa, keyinchalik bu nazariya ilmiy jihatdan to'liq tasdiqlanmagan. Shunga qaramay, u Lombrozo tomonidan kriminologiya fanining shakllanishi va jinoyatchi shaxsini o'rganish metodologiyasini rivojlantirishga qo'shilgan hissasi alohida ahamiyatga ega. Xuddi shuningdek, Gross tomonidan kriminalistika va sud-tibbiy ekspertiza sohasida olib borilgan tadqiqotlar jinoyatni tergov qilish jarayonida dalillarni tizimli tahlil qilish hamda jinoyatchining ehtimoliy portretini shakllantirish amaliyotining rivojlanishiga muhim turtki bo'lgan.

O'zbekiston milliy olimlaridan D.M.Mirazov, S.M.Selimanova, A.A.Ikanovlar ushbu masalaning jamoat xavfsizligiga qaratilgan tahdidlarini turli yo'nalishda tadqiq etganlar. Ushbu olimlarning mulohazalariga ko'ra, xavfsizlikni ta'minlashda, profayling texnologiyasidan foydalanadigan xodim maxsus algoritmgaga amal qilishi kerak. Bundan tashqari, jinoyatchining o'z rejasini amalga oshirishga tayyorligining belgilari quyidagilarni o'z ichiga oladi: mavsumga mos kelmaydigan kiyim, noto'g'ri o'lcham yoki odamning umumiy uslubiga mos kelmaydigan kiyim, kiyimning chiqib turgan qismlari, qo'lning doimo cho'ntagida yoki sumkada bo'lishi, soat yoki gadjet ekraniga tez-tez qarash, o'z kiyimlarini silab qo'yish, kiyimlarini paypaslash, qotib qolgan yoki muzlab qolgan holat, "robot" harakatlar, harakatsiz nigoh, kengaygan yoki jiddiy toraygan ko'z qorachiqslari.[9]

boshqa milliy olimlarimiz bu jarayonni konstitusiyaviy-huquqiy jihat bilan emas, balki huquq sohalari bilan bog'laydilar. Jumladan, U.Sh.Tallibayev xuddi shu masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilgan bo'lib, uningcha profayling jinoiy-huquqiy jihatlarini tezkor-qidiruv va psixofiziologik profayling turlariga ajratgan holda tadqiq etgan.[10] S.R.Tursunova esa, bu masalaga xavfsiz turizm sohasida profilengni qo'llash nuqtai nazaridan yondashgan. Unga ko'ra, metodologik jihatdan xavfsizlik profilini yaratish "Xavfga asoslangan yondashuv" konsepsiyasiga asoslangan. Bu, fuqarolarning umumiy populyatsiyasi va xususiyatlarning kombinatsiyasi asosida jinoyatchi yoki terrorchining operatsion profiliga mos keladigan kichik guruh aniqlanishi kerak. Xavfli xatti-harakatlarning odatiy naqshlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim bo'lib bu razvedka qilish bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki yashirin ravishda taqiqlangan narsalarni olib yuruvchi bosqinchi singari.[11]

Biroq, zamonaviy kriminologiya nuqtai nazaridan qaralganda jinoyatchining kriminologik portretini yaratish jarayonini faqat jismoniy belgilar yoki ayrim tashqi xususiyatlar bilan cheklab bo'lmaydi. Bu jarayon shaxsning psixologik xususiyatlari, xulq-atvori, vaziyatli omillar, ijtimoiy muhit hamda kontekstual belgilarni kompleks tahlil qilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy olimlarimiz – D.M.Mirazov,

S.M.Selimanova va A.A.Ikanovlarning ushbu masalaga doir ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur yondashuv shaxsning tashqi belgilariga asoslangan soddalashtirilgan yondashuvlardan farqli ravishda, profaylingni tizimli kuzatuv, tahliliy fikrlash va vaziyatli baholashga asoslangan ilmiy-amaliy metod sifatida talqin qiladi. Shu bois, biz ham ushbu masalaga baho berishda mazkur olimlarning ilmiy qarashlariga qo'shilamiz.

Chunki, o'zbek olimlari tomonidan ilgari surilgan yondashuv bir tomondan jamoat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan profaylingni diskriminatsion yoki shaxsiy hayot daxlsizligini buzuvchi amaliyotga aylanishining oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, profayling jarayonida shaxsning individual xulq-atvori, psixologik reaksiyalari va vaziyatga moslashuv darajasini tahlil qilishga asoslangan metodologiya inson huquqlari va erkinliklariga hurmat tamoyillariga mos keladigan yondashuv sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Bizningcha, U.Sh.Talibayev va S.R.Tursunovalarning qarashlari jamoat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Negaki, ular tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar profayling jarayonini tizimli kuzatuv va tahlilga asoslangan metod sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni amalga oshirishda shaxsiy hayot daxlsizligi, mutanosiblik hamda kamsitilmaslik kabi konstitutsiyaviy tamoyillarga qat'iy rioya etish zarurligi ham alohida ta'kidlanishi lozim. Profayling texnologiyasini qo'llash jarayonida shaxsning tashqi belgilariga yoki ijtimoiy mansubligiga asoslangan umumlashtirilgan xulosalar chiqarish inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, profaylingdan foydalanishda asosiy e'tibor shaxsning individual xulq-atvori, vaziyatga mosligi va psixologik reaksiyalarini tahlil qilishga qaratilishi kerak.

Demak, yuqorida qayd etilgan milliy olimlarning ilmiy qarashlarini ma'lum darajada asosli hisoblash mumkin. Biroq, ularni amaliyotga tatbiq etishda konstitutsiyaviy huquqiy tamoyillar – shaxsiy hayot daxlsizligi, mutanosiblik va kamsitilmaslik prinsiplari bilan uyg'un holda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shu holatda profayling jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali vositasiga aylanishi bilan bir qatorda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat tamoyillarini ham ta'minlay oladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, profilayling instituti kriminologiya, kriminalistika, psixologiya hamda huquqni muhofaza qilish amaliyotining muhim tahliliy instrumentlaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu ilmiy qarashlar esa, kriminologik portretni yaratish va jinoyatchining ehtimoliy profilini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodologiya shakllanishiga muhim zamin yaratgan.

Demak, olib borilgan tahlillar profilayling zamonaviy jamoat xavfsizligi tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi analitik instrument ekanligini ko'rsatadi. Biroq

uning samarali va qonuniy qo'llanilishi faqatgina ilmiy asoslangan metodologiya, aniq huquqiy tartibga solish hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina ta'minlanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, profilaylingni qo'llash amaliyotini rivojlantirish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash ehtiyojlari bilan inson huquqlarini himoya qilish tamoyillari o'rtasida muvozanatni saqlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ilmiy adabiyotlar tahlili profilayling institutining samaradorligi bilan bir qatorda uning inson huquq va erkinliklariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham anglatadi. Ayniqsa, shaxsning tashqi belgilariga yoki ijtimoiy mansubligiga asoslangan soddalashtirilgan yondashuvlar diskriminatsiya, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi hamda kamsitish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, profilaylingdan foydalanish jarayoni konstitutsiyaviy huquqiy tamoyillar – qonuniylik, mutanosiblik, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda kamsitilmaslik prinsiplariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolyusiyasi. 10.12.1948-yil // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt // <https://lex.uz/docs/2640479>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "Adloat" 2025-yil. 7-bet
4. Bojxona hamkorlik kengashini tashkil qilish to'g'risidagi Yevropa Kengashi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi (IHYK) // <https://iahs.uz/uz>
5. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolutsiyasi. 10.12.1948-yil // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>; Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt // <https://lex.uz/docs/2640479>
6. Anna Kulik. The terminology base of profiling: comparative analysis and unification (angl.) // Voprosi bezopasnosti. — 2024-03. — Iss. 3. — P. 1–13. — ISSN 2409-7543. — doi:10.25136/2409-7543.2024.3.71629.
7. Раздел 2. XIX век: Профайлинг. Предтечи. Музей профайлинга. Дата обращения: 06 марта 2026.
8. Личность политика: теория и методология психологического портретирования // Ракитянский Н.М., - М.: Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова, 2011. - 261 с. - ISBN 978-5-211-05861-3
9. Миразов Д.М., Селиманова С.М., Иканов А.А. "Особенности применения профайлинга при обеспечении общественной безопасности в парках". Практические и фундаментальные исследования. Том: 05 №: 01 (2026). - с 9

- 10.Таллибаев У.Ш. Профайлинг в Республике Узбекистан: понятие и правовые аспекты. Central Asian journal of education and innovation // Volume 4, Issue 9, September 2025. - с 55
- 11.Турсунова С.Р. Применение профайлинга в сфере безопасного туризма. Central Asian journal of education and innovation // Volume 3, Issue 9, September 2025. - с 54